

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 2
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



NOFILOLOG TALABALARGA VIRTUAL O'YINLAR ASOSIDA FRANSUZ TILI O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH

Sindorov Rajapboy Ulug'bek o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, o'qituvchi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada nofilolog talabalarga fransuz tilini virtual o'yinlar asosida o'qitishning zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Virtual o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, kasbiy terminologiyani o'zlashtirish va o'quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'yin texnologiyasi elementlari orqali interfaol ta'lim muhitini yaratish hamda fransuz tilini samarali o'rgatish usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fransuz tili, virtual o'yinlar, o'yin texnologiyasi, nofilologik yo'nalishi talabalari, kommunikativ kompetensiya, interfaol ta'lim, raqamli texnologiyalar, kasbiy terminologiya, chet tilini o'qitish.

РАЗВИТИЕ ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ НА ОСНОВЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ИГР

Синдоров Раджапбой Улугбек угли

Самаркандский государственный медицинский университет, преподаватель.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются современные методы обучения французскому языку студентов нефилологического направления на основе виртуальных игр. Освещается роль технологий виртуальных игр в образовательном процессе, их влияние на развитие коммуникативной компетенции, освоение профессиональной терминологии и повышение учебной мотивации студентов. Также представлены рекомендации по созданию интерактивной образовательной среды с использованием элементов геймификации для повышения эффективности обучения французскому языку.

Ключевые слова: французский язык, виртуальные игры, геймификация, студенты нефилологического направления, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение, цифровые технологии, профессиональная терминология, обучение иностранным языкам.

DEVELOPING FRENCH LANGUAGE TEACHING FOR NON-PHILOLOGY STUDENTS THROUGH VIRTUAL GAMES

Sindorov Rajapboy Ulug'bek o'g'li

Samarkand State Medical University, Lecturer.

Abstract.

This article examines modern methods of teaching French to non philology students through virtual games. It highlights the role of virtual game technologies in education, emphasizing their contribution to developing communicative competence, mastering professional terminology, and increasing students' learning motivation. The study also presents recommendations for creating an interactive learning environment using gamification elements to improve the effectiveness of French language teaching.

Keywords: French language, virtual games, gamification, non philology students, communicative competence, interactive learning, digital technologies, professional terminology, foreign language teaching.

Kirish. Chet tilini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida til muhiti va motivatsiya samarali til o'zlashtirishning eng muhim omillari hisoblanib kelinadi. Shu sababli yangi motivatsion muhitlarni yaratish zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Tabiiy til muhitini tatbiq etuvchi bunday jarayonlarda talabalar real hayotiy vaziyatlarni osonroq his qiladilar. Ma'lum ma'noda, virtual o'yinlar o'qitish uchun ideal muhit hisoblanadi.

Ularning imkoniyatlari ta'lim amaliyotida qo'llash nuqtayi nazaridan katta salohiyatga ega.

Fransuz tilini o'qitishda virtual o'yinlar talabalarga yaratilgan, ammo real hayotga yaqin kommunikativ muhitda til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Yangi pedagogik texnologiya yordamida talabalar kundalik hayot va akademik vaziyatlarni modellashtirish orqali muloqot qilish ko'nikmalarini amaliy ravishda rivojlantiradilar. Natijada o'quv jarayoni qiziqarli, interfaol va motivatsiyaga boy shaklda tashkil etiladi.

Bugungi mehnat bozori sharoitida nofilologik yo'nalish talabalari nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim olishlari, balki xorijiy tillarda ilmiy axborotlarni o'qish, xalqaro ilmiy hamkorlikda ishtirok etish va kasbiy muloqotni amalga oshirish kompetensiyalariga ham ega bo'lishlari talab etiladi. Shu sababli fransuz tilini o'qitishda talabalar mutaxassislik yo'nalishiga mos, zamonaviy va amaliy yondashuvlarni qo'llash zarurati oshmoqda. Virtual o'yinlar texnologiyasi tabiiy hodisalar va ilmiy muhitni modellashtirish orqali til va kasbiy tayyorgarlikni integratsiyalash imkonini beradi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida fransuz tilini o'qitishda virtual o'yinlar metodikasi hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati ingliz tilini o'qitishga bag'ishlangan. Nofilologik yo'nalish talabalariga fransuz tilini virtual o'yinlar asosida o'qitish metodlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi nofilologik yo'nalish talabalariga fransuz tilini o'qitish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'qitishning eng samarali usuli talabalarni to'liq til muhitiga singdirishga asoslangan yondashuvdir. Biroq oliy ta'lim tizimida aksariyat talabalar uchun xorijda ta'lim olish yoki til sohiblari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati cheklanganligi sababli, o'qituvchilar tabiiy til muhitiga imkon qadar yaqinlashtirilgan akademik modellarni ishlab chiqishga intiladilar. Bunday modellar qatoriga til sohiblari ishtirokidagi qisqa muddatli kurslar, bilingval ta'lim, shuningdek, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, keys-stadi (case study) hamda boshqa interfaol o'qitish metodlari kiradi [1, 56–61-b.].

Virtual o'yinlar texnologiyasi ta'lim jarayonini real hayotga yaqinlashtirish imkonini beradigan zamonaviy texnologiyalardan biridir. So'nggi yillarda uning ta'limdagi ahamiyati ortib bormoqda va undan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Virtual o'yinlar texnologiyasidan ta'limda foydalanish masalasi hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, bu yo'nalishga mahalliy va xorijiy olimlarning qiziqishi tobora ortib bormoqda. V.V. Dobrova va P.G. Labzina virtual o'yinlarning ta'limdagi asosiy afzalliklari sifatida ko'rgazmalilik, o'quv jarayoniga faol jalb etish, diqqatni jamlash va bevosita ishtirok hissini shakllantirishni ko'rsatadilar [2, 13–20-b.]. Umuman olganda, virtual o'yinlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan istiqbolli texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Bunday holatlarda o'qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak, degan savol tug'iladi. Bunga quyidagi vazifalarni belgilab olishimiz mumkin.

1-bosqich. Darsga tayyorgarlik

O'qituvchi darsning maqsadi va kutilayotgan natijalarni belgilaydi; mavzuga mos dastur yoki platformani tanlaydi; VO' uskunolari (VO' ko'zoynak, kontroller, kompyuter va internet)ning ishlash holatini tekshiradi; nofilologik yo'nalishga oid fransuzcha terminlar va kommunikativ vaziyatlarni tanlaydi; baholash mezonlari hamda topshiriqlarni oldindan tayyorlaydi.

2-bosqich. Motivatsiya va kirish

O'qituvchi dars mavzusini e'lon qiladi; VO' texnologiyasidan foydalanish tartibini tushuntiradi; talabalarning avvalgi bilimlarini faollashtiradi; yangi lug'at va iboralarni izohlaydi; bajariladigan topshiriqlar bo'yicha yo'riqnoma beradi.

3-bosqich. Virtual muhitda faoliyatni tashkil etish

O'qituvchi talabalarni VO' muhitiga ulyadi; virtual laboratoriya yoki kommunikativ vaziyatni ishga tushiradi; topshiriqlarni ketma-ket bajarishni nazorat qiladi; talabalarni fransuz tilida muloqot qilishga undaydi; zarur hollarda til va texnik yordam ko'rsatadi; barcha talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

4-bosqich. Kommunikativ faoliyatni boshqarish

O'qituvchi juftlik va guruh ishlarini tashkil etadi; rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni yaratadi; talabalarning og'zaki nutqini kuzatadi; talaffuz, grammatika va so'z qo'llashdagi xatolarni qayd etadi; muloqotning uzluksiz davom etishini ta'minlaydi.

5-bosqich. Tahlil va baholash

O'qituvchi VO' platformasida qayd etilgan natijalarni tahlil qiladi; har bir talabaning faolligi va til kompetensiyasini baholaydi; individual tavsiyalar beradi; uchragan xatolarni muhokama qiladi; o'zlashtirish darajasini baholash mezonlari asosida yakuniy xulosa chiqaradi.

6-bosqich. Mustahkamlash

O'qituvchi talabalar bilan dars yuzasidan refleksiya o'tkazadi; virtual tajriba bo'yicha fransuz tilida fikr almashishni tashkil qiladi; uyga mustaqil topshiriqlar beradi; keyingi mashg'ulot uchun tavsiyalar ishlab chiqadi. O'qituvchining asosiy vazifalari quyidagicha: ta'lim jarayonini rejalashtirish; texnik va metodik yordam ko'rsatish; talabalarning kommunikativ hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Xulosa qilib aytganda, nofilologik yo'nalish talabalariga fransuz tilini virtual o'yinlar asosida o'qitish zamonaviy ta'limning innovatsion va samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Virtual o'yinlar va o'yin texnologiyasi elementlaridan foydalanish talabalarining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi hamda fransuz tilidagi kasbiy terminologiyani o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Bunday yondashuv o'quv jarayonini interfaol va talaba markazli tashkil etishga, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish talabalarni mustaqil ta'limga yo'naltiradi, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda chet tilini o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli virtual o'yinlarga asoslangan metodlarni oliy ta'lim muassasalarida fransuz tilini o'qitish amaliyotiga keng joriy etish, ayniqsa nofilologik yo'nalish talabalarining kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рольгайзер А. А. Применение интерактивных методов обучения в преподавании английского языка // *Научные исследования и разработки. Социально-гуманитарные исследования и технологии*. – 2016. – Т. 5. – № 4. – С. 56–61.
2. Доброва В. В., Лабзина П. Г. Виртуальная реальность в преподавании иностранных языков // *Вестник Самарского государственного технического университета*. – 2016. – № 4. – С. 13–20.
3. Лисаченко Д. А. *Французский язык для физиков: учебно-методическое пособие*. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 1998. – 64 с.
4. Sindorov R. U. Fransuz tili o'qitish jarayonida madaniyatshunoslik integratsiyasi: oliy ta'lim misolida // *Development of Science*. – 2025. – Vol. 10. – No. 12. – URL: <https://devos.uz/article.php?id=3306>.